

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FINLANDIYA AMALIYOTI: ISHONCH ASOSIDAGI IJTIMOY KAPITAL



Yernazarov Solijon Yerkinovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi, iqtisod fanlari nomzodi



Temirov Humoyunmirzo Najmiddinovich

Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Finlyandiya modeli zamonaviy ijtimoiy falsafada “ijtimoiy kapital” va “ijtimoiy ishonch” tushunchalarining eng barqaror amaliy mujassamlanishlaridan biri sifatida ko'riladi. Bu modelni ijtimoiy falsafa doirasida tahlil qilish, ayniqsa, zamonaviy postkolonial jamiyatlar rivoji uchun nihoyatda dolzarbligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tizim, korrupsiya, yuridik, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy, huquqbuzarlik.

ФИНСКАЯ ПРАКТИКА БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ: СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ, ОСНОВАННЫЙ НА ДОВЕРИИ

Аннотация. В статье рассматривается финская модель как одно из наиболее устойчивых практических воплощений концепций «социального капитала» и «социального доверия» в современной социальной философии. Проводится анализ данной модели в рамках социальной философии, особенно для развития современных постколониальных обществ.

Ключевые слова: образование, система, коррупция, правовая, моральная, социально-философская, преступность.

INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF THE NATIONAL GUARD OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

Abstract: According to this article, one of the most reliable real-world applications of the ideas of social capital and social trust in contemporary social philosophy is the Finnish model. It makes clear how important it is to examine this model from a social philosophical perspective, particularly in light of the evolution of contemporary postcolonial cultures.

Keywords: education, crime, system, corruption, law, morality, and socio-philosophy.

Finlyandiya modeli zamonaviy ijtimoiy falsafada “ijtimoiy kapital” va “ijtimoiy ishonch” tushunchalarining eng barqaror amaliy mujassamlanishlaridan biri sifatida

ko'riladi. Maxsus institutlarga tayanmasdan, davlat va jamiyat o'rtasida yuzaga kelgan “sotsial kontrakt” milliy xususiyatda emas, balki umumiy antropologik ishonch asosida shakllangani bilan

o'ziga xosdir. Boshqacha aytganda, Finlyandiya-da ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish vositasi, balki jamiyatni ijtimoiy regeneratsiyaga olib boruvchi axloqiy-siyosiy institut sifatida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy kapitalning yadro elementi sifatida ishonch – Finlyandiya-da faqat huquqiy yoki iqtisodiy darajada emas, balki ontologik sathda mavjud bo'lib, jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlar strukturaviy emas, sadoqatli konvensiyalar asosida qurilgan.

P. Fukuyama fikricha, “yuqori darajadagi ijtimoiy ishonch davlat institutlariga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi, biroq u yuqoridan majburiy nazorat orqali emas, balki jamiyatda shakllangan axloqiy me'yorlar asosida shakllanadi” [1; 27-b.]. Finlyandiya bunga eng yorqin misoldir: bu yerda o'qituvchiga nafaqat kasb egasi, balki ijtimoiy axloq homiysi, jamiyatning madaniy va ruhiy poydevorini qayta ishlab chiqaruvchi agent sifatida qaraladi. Bu esa ta'lim tizimini zamonaviy texnokratik bilimlar emas, ijtimoiy-madaniy murosaga asoslangan kontekstual ongni tarbiyalovchi vositaga aylantiradi. O'qituvchilik kasbining yuqori ijtimoiy maqomda e'tirof etilishi Finlyandiya-da jamiyatning qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liq. Bu jihat N. Luhmann tomonidan “axloqiy tizimlar orqali siyosiy tizimni legitimlashtirish” sifatida ifodlangan [2; 73-b.].

Luhmanning bu modeli Finlyandiya misolida ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lib, davlat emas, balki ta'lim institutlari orqali jamiyat o'zini o'zi legitimlashtiradi. Tanqidiy jihatdan, bu modelning universal emasligi ko'plab G'arb davlatlari, ayniqsa, AQSH yoki Janubiy Yevropa kontekstida yaqqol ko'rinadi. Ayrim sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishonch ijtimoiy kapital sifatida faqatgina sotsial-demokratik madaniyatga xos bo'lgan iqtisodiy barqarorlik va tenglik sharoitida samarali ishlaydi [3; 137-b.]. Shunday ekan, Finlyandiya tajribasini avtomatik tarzda O'zbekiston yoki boshqa postsovet davlatlarida qo'llashga urinish, ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan “formallik” va “qo'rquv orqali tartib” asosidagi

tarixiy qatlamlar bilan ziddiyatga kiradi. Biroq, Finlyandiya tajribasidan oladigan asosiy saboq shundaki, ta'limdagi korrupsiyani faqat jazolash yo'li bilan emas, ijtimoiy ong va kasbiy madaniyatni tubdan o'zgartirish orqali oldini olish mumkin. O'qituvchini davlat xizmatchisi emas, axloqiy lider sifatida tarbiyalash, ishonch asosidagi ijtimoiy kapitalni shakllantiradi. Aynan shuning uchun Finlyandiya-da alohida “korrupsiyaga qarshi kurashish” instituti mavjud emas. Bu vazifa axloqiy, madaniy va ijtimoiy me'yorlar orqali jamiyat tomonidan hal etiladi [4; 50–51-b.]. Shunday qilib, ta'lim tizimini faqat qonunchilik yoki byurokratik nazorat orqali emas, balki ontologik sadoqat, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan kasbiy qadriyatlar orqali shakllantirish – korrupsiyaga qarshi kurashning eng chuqur va barqaror yo'lidir. Bu esa Finlyandiya modelining mohiyatini tashkil etadi: adolatni qonun emas, axloq kafolatlaydi.

Korrupsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasida uchrab turar ekan, demokratik islohotlarni amalga oshirishda mulkdorlar sinfining belgilangan qonunlar asosida ish yuritishida, iqtisodiyotning rivojlanishida, aholi turmush-tarzinining izchil yaxshilanishida, ya'ni tartib qoidalar ijobiy o'rnatilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ayanchli holatlarga olib keladi. Biz o'z mustaqilligimizning o'tish davri hamda bozor munosabatlarini to'liq amalga oshirish yo'lidan borishimizda, davlatimizni rivojlantirishimizda korrupsiya va jinoyatchilikning ko'pgina turlari salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasining ichki tizimida ham korrupsiya va jinoyatchilikning ko'pgina turlari mavjud. Uyushgan jinoyatchilikning “xufiyona” iqtisodiyot, mafiya, gangsterlik (banditlik) shaykalari, narkobiznes, qimor o'yinlari, terrorizm usullaridan foydalanish va fahsh savdosi kabi turlaridan ham mustasno emas.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hozirgi kunda jahon mamlakatlari orasida keng tarqalgan dolzarb muammodir. Bu illat ko'pgina davlatlarda chuqur ildiz otib, davlatning ichki boshqaruv apparatini o'z tazyiqi ostiga olgan. Masalan, Italiya, Rossiya, Venesuela, Nigeriya, Pokiston,

Keniya, Angola, Madagaskar, Qozog'iston, Ozarbayjon, Indoneziya va boshqa davlatlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi yuqorida ko'rsatilgan davlatlar safiga kirmasa-da, yurtimizda korrupsiyaning mavjudligi sezilib qolmoqda. Bu esa davlatimiz oldidagi katta muammolardan biridir.

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi Igor Kudriyavsev "Bizning hududlarda jinoiy uyushmalarning asosan ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi, giyohvandlik moddalari bilan savdo qiladigan guruhlar, ikkinchisi, hokimiyatni bosib olish, ya'ni konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlash maqsadida fitnalar uyushtirishni maqsad qilib olgan jinoiy uyushmalar"dir [6] degan fikrlarni bildirgan. Biz O'zbekistonda uyushgan jinoyatchilikning ikki emas, uch ko'rinishi mavjud ekanligini aniq va yaqqol ko'rsata olamiz. (Ishimizni uyushgan jinoyatchilik bilan bog'langan holda ko'rishni maqsadga muvofiq deb topdik). Chunki O'zbekistonda uyushgan jinoyatchilikning uchinchi ko'rinishi korrupsiyadir. Birinchisi, giyohvandlik moddalari bilan savdo qiladigan guruhlar (bular uyushgan guruhning oddiy, o'rta, yuqori darajalari, mafiyalar va boshqalarni o'z ichiga oladi). Ular faqatgina giyohvandlik moddalari bilan emas, davlat taqiqlagan boshqa bizneslar (rangli metallar, paxta biznesi, kontrabanda mahsulotlari, fahsh savdosi, qurol-yarog' va boshqalar) bilan ham shug'ullanadi. Asosan narkobiznes (giyohvandlik savdosi) jinoiy guruhlar uchun juda katta daromad manbaidir. Shu sababli narkobiznes yil sayin oshib bormoqda. Respublikamizda jinoiy unsur bo'lmish "narkobiznes"ning uchrayotganligi va ko'plab aholi hamda jinoiy guruhlarining deyarli hammasi, mana shu og'u bilan mashg'ul ekanligi yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi narkobiznes yo'lining chorrahasida joylashganligi, davlatimizda narkotik moddalar bilan shug'ullanishga katta imkoniyatlar yaratilishiga olib kelmoqda. Narkotiklar o'chog'i bo'lmish Afg'onistonning, keyingi yillarda bundan foydalanayotgan Tojikistonning chegaradoshligi,

bu savdoni yanada chuqurlashtirmoqda. Faqatgina O'zbekiston fuqarolari emas, balki qo'shni davlat fuqarolari ham O'zbekiston hududidan narkotik moddalarni olib o'tishga urinishmoqda. Hattoki ayollar, bolalar ham bu jinoyatga bilib-bilmay sherik bo'lib qolmoqda. Chegara postlarida mas'ul shaxslarning pora olishi orqali narkotik moddalarni o'tkazib yuborayotganliklari ham aniqlanmoqda.

Jinoiy guruhlarining ma'lum uyushmalari fahsh savdosi orqali daromad topishga harakat qiladilar. Respublikani tuman, shahar joylarida maxsus yashirin fahshxonalar ochishadi, ularni o'z homiylikiga olib, fohishalar bilan ta'minlab turadi. Vaqti-vaqti bilan fohishalarni almashtirib (birinchi shahardan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga) turadi. Fahshxonalardan tushayotgan daromadlar maxsus kishilar orqali jinoiy guruhlariga (homiylarga) yetkazib turiladi. Homiylar fahshxonalarni o'z himoyasida saqlab, maxsus tekshiruv organlaridan himoyalaydi. (Ularni pora berish usuli bilan o'zlariga og'dirib olishadi).

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, to hozirgacha kontrabanda faoliyatidan foydalanish tobora o'sib bormoqda. O'zbekiston hududining barcha joylarida yaroqsiz mahsulot ko'payib ketgan. Bu mahsulotlar aholi uchun salbiy holatlarni tug'dirmoqda. Jinoiy guruhlarining davlat taqiqlagan mahsulotlar bilan shug'ullanishi narkobiznesdan keyingi daromadni ko'p keltiruvchi biznesdir. O'zbekiston hududida ko'plab rangli metallar, neft-gaz, oziq-ovqat mahsulotlari va paxta xomashyosi qo'shni davlat hududlariga o'tkazib yuborilmoqda. Bu holat esa keyinchalik jinoiy guruhlar tomonidangina emas, oddiy fuqarolar tomonidan ham amalga oshirilmoqda.

Yashirin qurol sotish biznesi ham mintaqaviy mojarolar va mahalliy urushlarning foydalanib qoluvchilarga katta daromad keltirmoqda. Bunday korchalonlar uchun qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish va keskinlikni saqlab turish, qurol-yarog'larni sotish yaxshi daromad ekanligini ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak. Yashirin qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa

bilan bog'liq. O'zgaralar qonini to'kish hisobiga mo'may daromad olishni istovchilar batamom yo'q bo'lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borgan o'xshaydi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" qon va nopok siyosat qorishgan pul, dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo'ladi. Ushbu jinoiy biznes orqali katta boylik orttirish imkoniyatlari uning ishtirokchilarini milliy qonunlar majmui bilan ham, ayniqsa, "oq ajal"ning halokatli oqibatlari bilan ham hisoblashmay, har qanday ishni bajarishga majbur etmoqda.

Korrupsiya huquqiy nuqtai nazardan mansabdor (rasmiy) shaxslar tomonidan o'zlariga berilgan vakolatlarni o'z xususiy (shu jumladan shaxsiy) manfaatlari va maqsadlari uchun hamda

ularga vakolat bergan (yuridik yoki jismoniy) shaxslar manfaatlariga zid tarzda huquqqa qarshi foydalanishida ifodalanuvchi ijtimoiy hodisadir. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan esa, korrupsiya – bu davlat tomonidan o'zining rasmiy shaxslari – davlat xizmatchilariga taqdim etilgan hokimiyat vakolatlaridan huquqqa zid va davlatga qarshi foydalanishdir. Shu asnoda korrupsion jinoyatchilikning alohida xavfi davlat xizmatchilariga berilgan alohida huquqlar va vakolatlar bilan belgilanadi. Shuning uchun agar huquqni kafolatlashga va jinoyatchilik bilan kurashishga mo'ljallangan tizimning o'zi jinoiylik bilan kasallangan, jinoyat quroliga aylangan bo'lsa, jamiyat va davlat o'ta katta xavfga tortiladi. Bunday vaziyat milliy xavfsizlikka benihoya va o'ta chuqur tahdid sifatida belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. Fukuyama F. (1995). Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. Free Press. – B. 27.
2. Luhmann N. (1990). Political Theory in the Welfare State. De Gruyter. – B. 73.
3. Putnam R. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster. – B. 137.
4. Zufarov R.A., Ahrarov B., Mirzayev U.M. (2011). Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. – T.: TDYUI nashriyoti. – B. 50–51.
5. Korrupsiyaga qarshi kurash // Hurriyat gazetasi. – 2002-yil 11-sentyabr
6. Kudryavsev I. Uyushgan jinoyatchilik va unga qarshi kurash muammolari // "Qonun himoyasida" jurnali. – 2002-yil 7-son.